

DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING BOSHQA NAZORAT ORGANLARI BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI

D. Sholdarov

Toshkent moliya instituti dotsenti

G. Navruzova

Toshkent moliya instituti magistiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat sektorida ichki audit xizmatining maqsad va vazifalari, boshqa nazorat organlari bilan uzviy bog‘liqligi va farqi haqida tahlil qilingan. Tahlil jarayonida davlat byudjetining mablag‘lar samaradorligiga oid tavsiyalar berilgan. Undan tashqari davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va g‘aznachilik xizmati qo‘mitasi bilan bog‘liq umumiy jihatlari ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat sektorida ichki audit, Ichki audit xizmati, davlat moliyaviy nazorati, g‘aznachilik.

KIRISH

Davlat sektori tashkilotlarning ichki audit xizmati tashkilot faoliyatini nazorat qilish bilan bir qatorda, uning ish faoliyatini qonun doirasida olib borish, daromad va xarajatlari smetalarini tuzish, tashkilot faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida o‘z maslahat va tavsiyalarini berish bilan ham shug‘ullanadi. Umuman olganda vazirliklar faoliyatini byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi bunda albatta mablag‘lar sarfini nazorat qilish funksiyasi ichki audit xizmati zimmasiga tushadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatini yanada rivojlantirish hamda ularning faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan ichki audit xizmatini tashkil etish tartibi va xodimlariga nisbatan me‘yorlar va talablar belgilandi.

Vazirlik va idoralar — ichki audit xizmati tashkil etilgan byudjet mablag‘lari taqsimlovchilari va ular tizimidagi budjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg‘armalari hisoblanadi. Shu o‘rinda aytish lozimki, 2023 yil 1 yanvardan O‘zbekistonda hukumatga bo‘ysunuvchi mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 tadan 28 taga qisqartiriladi. Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarining birinchi

bosqichi doirasida ixcham, professional boshqaruv tamoyillariga asoslangan va samaradorlikka yo‘naltirilgan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar va inspeksiyalarni o‘z ichiga oladigan yaxlit tizimini shakllantirildi.

Ichki audit xizmati — vazirlik va idoralarda ichki audit faoliyatini amalga oshiruvchi hamda boshqa tarkibiy tuzilmalardan mustaqil tarkibiy bo‘linmadir.

Ichki audit faoliyati esa vazirlik va idoralarda budjet intizomini mustahkamlash, byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, byudjet tizimi byudjetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyat.

Vazirlik va idoralar ichki audit xizmatining asosiy maqsadi – vazirlik va idoralarda faoliyatni yaxshilashga qaratilgan va ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sifatli bajarilishiga yo‘naltirilgan risk tahlili asosidagi, mustaqil, xolis va ishonchli ma‘lumot hamda maslahat berish hisoblanadi.

Ichki audit xizmati boshqaruv jarayonlari, risklarni boshqarish hamda ichki nazoratni baholash va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyat yuritish orqali vazirlik va idoralar maqsadlariga erishishga yordam beradi. Ichki audit xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston konstitutsiyasi va qonunlariga, Oliy Majlis palatalari qarorlariga, prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ushbu namunaviy nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi. Ichki audit xizmati va uning tuzilmaviy shakli O‘zbekiston prezidenti yoki hukumati qarori asosida vazirlik va idoralarning markaziy apparati tarkibida tashkil etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit -bu tashkilot faoliyatini yaxshilash va qiymat qo‘shish uchun mo‘ljallangan mustaqil, ob‘ektiv va ishonchli maslahat olish faoliyati hisoblanadi. Ichki nazorat bu tashkilotga xavflarni boshqarish va boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash va yaxshilashga tizimli yondashuvni keltirib, o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi. Ichki audit javobgarlik munosabatlariga xizmat qiladi¹. Xorijlik tadqiqotchi M.E Aikenning² “modern internal auditing in the public sector” nomli maqolasida quyidagicha ta’rif bergan: Ichki audit barcha ishtirokchilar talab qilgan ma‘lumotlarni ta’minlaydigan, buxgalteriyada uch qismdan iborat auditorlik reja ta’minlaydi bular:

¹ Ostonokulov Azamat Abdukarimovich. (2023). Audit inspections of state purchases and contracts signed on the basis of tender in budgetary organizations. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(2), 99–112. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/1134>

² <https://worldcat.org/title/4769433335>

- moliyaviy omonatlar, hisobotlar va moliyaviy hisobotlarda moliyaviy auditi;
- samaralik va iqtisodiyoti bilan boshqarilgan boshqaruv auditi;
- tashkilotda maqsadga muvofiq bo'lgan auditorlik dasturi ishlab chiqish.

Yan Van Taynen, P.P. Andreevlar “davlat sektorida ichki auditni tashkilot rahbari tomonidan qo'yilgan maqsadga erishishda ichki nazorat tizimi va uning samaradorligiga baho berishga tizimli yondashish bo'yicha faoliyat deb qarashadi”¹. A.K.Ibragimov va B.B.Sugirbaevlar byudjet tashkilotlarida ichki auditni quyidagicha e'tirof etishgan: “Ichki audit –ob'ektiv faoliyat bo'lib, ichki nazoratni samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan, tuzilayotgan hisobotlarni va byudjet tashkiloti faoliyati samarasini hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar taqdim qilishga yo'naltirilgan”². S.Mehmonov esa byudjet tashkilotlarida ichki auditga quyidagicha ta'rif bergan: “ Ichki audit –tashkilot tomonidan smetalarni tuzish hamda ijrosini amalga oshirishni qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish hamda monitoring olib borish yo'li bilan nazorat qilish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini ishonchliligini ta'minlash, byudjet –smeta intizomiga rioya qilish, mablag'larni maqsadli va oqilona sarflanishga yo'naltirilgan faoliyatdir”³. B.To'yinovning fikricha, “Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ichki audit deganda -byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi, moliyaviy jarayonlarning qonuniyligi va moliyaviy nazorat tizimiga xolisona baho beruvchi, tashkilot xarajatlarining asosli rejalashtirilishi va sarflanishi yuzasidan professional maslahatlar berishga ixtisoslashgan tizim tushuniladi”⁴.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.To'rayev o'z ilmiy izlanishlarida “ichki audit xizmati natijalaridan tashqi auditorlarning foydalanishi auditorlik tekshiruv uchun sarflanadigan vaqt sarfini kamaytirish orqali auditorlik tashkilotida mehnat resurslariga bo'lgan xarajatlarni qisqartirish, shuningdek, auditorlik dalillarining yetarliligi tamoyili asosida qo'shimcha dalillar olish imkonini beradi” deb ta'kidlagan.

Berilgan ta'riflar tahlil qilish asosida quyidagicha ta'rif shakllantirdik: davlat sektorida ichi audit – byudjet mablag'larining talon-taroj qilinishni oldindan aniqlash va byudjet hisobini tashkil etishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik, muassasa faoliyati sifatini baholash, kamchiliklarini aniqlash hamda natijaviylikka qaratilgan tizimdir.

¹ Андреев, П.П. Внутренний контроль и аудит в секторе государственного управления и европейский опыт / П.П. Андреев. -Киев: Кафедра, 2011. -120с. (с.7)

² Ibragimov A.K., Sugirboeva B.B. Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. Info COM.Uz.MChJ.T.:2010.

³ Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish.i.f.d.(DSc) diss.Toshkent,2018.55-bet.

⁴ To'yinov B. I. Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki auditni qo'llashning uslubiy jihatlar. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. No 3, iyun, 2018.1-8 bet.

O'zbekiston respublikasida davlat sektorida ichki auditni tashkil etish bo'yicha yetarlicha huquqiy me'yoriy hujjatlar mavjud ammo ijrosi ustidan yetarlicha deb qaray olmaymiz.

TADQIQOT USULLARI

Ilmiy izlanishlar jarayonida tahlil va sintez, analitik tahlil, qiyosiy tahlilning samarali usullaridan foydalanildi. Tadqiqotimizda qiyosiy tahlil, analitik tahlil sohalari yordamida muammoni chuqur o'rganishga harakat qildik. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat sektorida ichki audit xizmati va davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishga doir ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat sektori tashkilotlarning ichki audit xizmati tashkilot faoliyatini nazorat qilish bilan bir qatorda, uning ish faoliyatini qonun doirasida olib borish, daromad va xarajatlari smetalarini tuzish, tashkilot faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida o'z maslahat va tavsiyalarini berish bilan ham shug'ullanadi. Shu sababdan, ichki auditga ta'rif berayotganimizda uning professional xizmatlarini ham alohida ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Chunki, davlat sektori tashkilotlarning nazorati davlat moliyaviy nazorat xizmati tomonidan ham olib boriladi. Ichki audit xizmatining asosiy jihati esa, davlat moliyaviy nazoratidan farqli ravishda byudjet tashkiloti uchun yordamchi sifatida nomoyon bo'lishidir.

Yuqoridagi ta'riflardan ichki audit xizmatining ahamiyati yuqoriligini anglashimiz mumkin. Ko'p hollarda davlat sektori tashkilotlarning ichki audit xizmati va davlat moliyaviy nazoratini o'zaro bir-biriga o'xshatib yoki adashtirib quyishadi. Lekin, ular aslida bir-biriga o'xshamagan funksiyalar va vazifalarga ega. Ichki audit xizmati bu tashkilotning faoliyatidagi nomutanosibliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish va kerakli maslahat, tavsiyalarni beribborish va doimiy monitoring o'tkazish bilan xarakterlanadi. Davlat moliyaviy nazorati -byudjet to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar buzilishlarini aniqlash maqsadida moliyaviy nazorat ob'ektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish hamda taqqoslash bilan shug'ullanadi.

Davlat sektori tashkilotlarda ichki audit yaxshi davlat boshqaruvining kaliti bo'lganligi sababli, ichki audit ajratilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'g'ri foydalanish jarayonini baholashda juda muhim vositadir. Davlat sektori tashkilotlarning barcha moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga javob berishi uchun byudjet tashkilotining ichki audit xizmati har tomonlama qamrab olishi kerak. Davlat sektori tashkilotlarning faoliyatini xolis va mustaqil baholash uchun ichki audit jarayoni zarur. Ayrim davlat sektori tashkilotlarda faqat ichki audit mexanizmi mavjud bo'lsa, ayrimlarida ichki audit xizmati mavjud emas. Davlat sektoridagi tashkilotlar faoliyati nafaqat, ichki audit balki, tashqi audit (davlat moliyaviy nazorat) tomonidan ham

o'rganiladi va baholanadi. Ushbu o'rinda ichki audit byudjet tashkilotlarini samarali boshqarishda muhim sanaladi. Davlat sektori tashkilotlarda ichki audit faoliyati va hisobot munosabatlari turli faoliyat sohalari bo'yicha amalga oshiriladi.



1-rasm. Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi va davlat sektorida ichki audit xizmatining vazifaviy jihatdan o'zaro o'xshashligi¹

¹ Talaba tomonidan huquqiy me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlandi.

Davlat sektori tashkilotlarning o'z faoliyatini amalga oshirishi hamda mablag'lardan samarali foydalanish hamda samarali boshqarishni ta'minlash, iqtisodiy va axloqiy jihatdan, shuningdek, belgilangan mezonlarga muvofiq, jamoatchilik oldida hisobot berish va axborotlarni oshkor qilish majburiyatlarini bajarishga xizmat qiladi.

Davlat sektoridagi tashkilotlar ichki audit faoliyatga oid mas'uliyatni ta'minlash va boshqaruvga oid asosiy qadriyatlarni saqlab qolish, rahbarlar va mansabdor shaxslarning o'z faoliyatini shaffof, adolatli, halol va tenglik asosida olib borishini ta'minlash orqali davlat boshqaruvini mustahkamlaydi. Davlat boshqaruvining barcha darajalaridan saylangan va tayinlangan mansabdor shaxslar barcha asosiy elementlarga javob beradigan mustaqil audit funksiyalarini tashkil etish orqali samarali auditorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat sektorida ichki audit xizmatini tashkil etishda bir qator masalalar ochiqlicha qolgan masalan ichki auditorlar milliy sertifikatini topshirayotganda ularga staj bo'yicha talab qo'yilmasligi lozim deb bilaman. Chunki xorij davlatlari tajribasiga binoan sertifikat bilim darajasini aniqlab beradi. Bilim daraja uchun malakaviy faoliyat emas balki o'quv malaka muhim deb o'ylaymiz.

- Davlat sektorida ichki audi xizmati va davlat moliyaviy nazorati organlarini har yili malakaviy o'quv kurslariga jalb etib ularga hujjat ya'ni sertifikat berilsa maqsadga muvofiq bolar edi.

- Me'yoriy hujjatlarda keltirilgan vazifaviy o'xshashliklarni yana bir bor tahlil qilish lozim. Zero bir vazifani miqdor jihatdan nazorati emas balki sifatli nazorat muhim ro'l o'ynaydi.

- Xaridlar bilan bog'liq jarayonni shaffoflashtirish va nazorat qulayligi uchun pudratchi tashkilotlarini ham davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasida hamda tashkilot ichki auditioning elektron platformasida hamkor pudratchi tashkilotlardan olgan mahsulotlar sarhisobi kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ostonokulov Azamat Abdukarimovich. (2023). Audit inspections of state purchases and contracts signed on the basis of tender in budgetary organizations. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(2), 99–112. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/1134>
2. Андреев, П.П. Внутренний контроль и аудит в секторе государственного управления и европейский опыт / П.П. Андреев. -Киев: Кафедра, 2011. -120с.

(c.7)

3.Ibragimov A.K.,Sugirboeva B.B. Byudjet nazorati va auditi.O‘quv qo‘llanma. Info COM.Uz.MChJ.T.:2010.

4.Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish.i.f.d.(DSc) diss.Toshkent,2018.55-bet

5.To‘yinov B. I. Oliy ta’lim tashkilotlarida ichki auditni qo‘llashning uslubiy jihatlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. No 3, iyunь, 2018.1-8 bet.